Muhim ma'lumot

O‘ZBEKISTON
MILLIY BANKI

O‘ZBEKISTON
MILLIY BANKI

Korrupsiya taraqqiyot kushandasi!

nbu.uz
(78) 148-00-89
@nbuanticor_bot
anticor@nbu.uz

Korrupsiya taraqqiyot kushandasi!

“Korrupsiya – bu davlatimizni ich-ichidan yemirib, milliy xavfsizligimizga rahna soladigan g‘oyat xatarli tahdid va unga qarshi murosasiz kurash olib borish – barchamizning burchimizdir”.

Shavkat Mirziyoev

Korrupsiya — shaxsning o‘z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o‘zga shaxslarning manfaatlarini ko‘zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etishi tushuniladi.

“O‘zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy banki” aksiyadorlik jamiyati o‘z faoliyatida halol, vijdonli va ochiq biznes yuritishning yuqori me'yorlariga amal qiladi. Biz korrupsiyani har qanday shakl va ko‘rinishlarda rad etish prinsipiga rioya qilamiz va jamiyatda korrupsiyaga qarshi madaniyat darajasini oshirishga hissa qo‘shishni o‘z burchimiz deb bilamiz.

“O‘zmilliybank” AJ Boshqaruvi Raisi A. Mirsoatov

Bankning barcha xodimlari, egallab turgan lavozimidan qat'iy nazar, Korrupsiyaga qarshi kurashish Siyosat tamoyillari va talablariga rioya etilishi uchun javobgardirlar.

“O‘zmilliybank” AJ Korrupsiyaga qarshi qurashish siyosatidan

Manfaatlar to'qnashuvi

Shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorlik shaxsning mansab yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta'sir ko‘rsatayotgan yoxud ta'sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolarning, tashkilotlarning, jamiyatning yoki davlatning huquqlari va qonuniy manfaatlari o‘rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan yoki yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan
vaziyat.

Rahnamolik, favoritizm (fr. Favorit)
Himoya ostidagi ayrim xodimlarni yaqin olish va qo‘llab-quvvatlash

Nepotizm (lotnepos-jiyan)
Qarindosh-urug‘chilik, hududiy yoki etnik prinsiplar asosida davlat tuzilmalarida yoki boshqa boshqa tuzilmalarda tor guruhchilik manfaatlari bilan ish ko‘rish

Klientelizm (ingl.clientelism, lot.clientela-mijoz)
yuqori lavozimdagi mansabdor shaxs va unga xayrixoh bo‘lgan shaxslar

Kroizm (ingliz. hamfikr, anish bilishchilik, guruhbozlik)
Lavozimlarni tanish-bilishchilik asosida do‘stlarga berish

Pora olish ham, berish ham jinoyat

- Pul yoki moddiy qimmatliklar olish, berish
- Xizmat ko‘rsatish
- Mulkiy manfaatdor bo‘lish